

## MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OT-IT TURK" ASARIDAGI TO'RTLILIKLARNI TABDIL QILISH MASALASI.

*Parpiyev Botirali Raximjon o'g'li*  
*Namangan Davlat Universiteti*  
*mustaqil tadqiqotchi doktorant,*  
[botiraliparpiyev4@gmail.com](mailto:botiraliparpiyev4@gmail.com)  
*tel: +99894 100 70 15*

**Annotatsiya.** Maqolada XI asrda yashab ijod qilgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ot-it turk" asarida berilgan to'rtliklarning qofiyalanish usullari, ularning ma'nolari va asarning o'zbek lug'atshunosligiga qo'shgan hissasi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Qadimgi turkiy adabiyot, fonetik, leksik, morfologik, poetik, qofiya, maqol, dialekt.

**Аннотация.** В статье исследуются способы рифмовки четверостиший, приведенные в "Дивани лугат-ит турк" Махмуда Кашгари, жившего и творившего в XI веке, их значения и вклад произведения в узбекскую лексикографию.

**Ключевые слова:** древнетюркская литература, фонетическая, лексическая, морфологическая, поэтическая, рифмованная, пословичная, диалектная.

**Abstract.** The article explores the rhyming methods of the quatrains, their meanings, and the work's contribution to Uzbek lexicography, as given in "Divani lugat-it Turk" a work by Mahmud Qoshgari who lived and wrote in the 11th century.

**Keywords:** ancient Turkic literature, phonetic, lexical, morphological, poetic, rhyme, proverb, dialect.

### KIRISH.

Mustaqillik mafkuramizga ko'ra biz yozma yodgorliklarga o'z sarchashmamiz, istiqlol mafkuramizning asosini yaratishdagi muhim manba sifatida qaray boshladik. Ularni qanday bo'lsa, shundayligicha o'rganishga, bobolarimizning donishona hikmatlarini bugungi kunga ham tadbiiq qilishga harakat qilmoqdamiz. Tarixiylik tamoyilidan kelib chiqib, ana shunday asarlarni o'tmishimizda qanchalik muhim o'rin

egallaganliklarini ilmiy tadqiq etmoqdamiz.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Tillarning qadimgi davrlarida yuzaga kelgan o'ziga xos davriy yangiliklar o'sha davr yozma yodgorliklarida saqlanib qolganligidir. Hozirgi o'zbek adabiy tili faqat bugungi kunning mahsuli emas, balki ma'lum bir tarixiy bosqichda yuzaga kelgan boshlang'ich, sodda tilning o'zgargan, takomillashgan holidir. Bugungi kungacha u turli fonetik, morfologik, leksik va boshqa mantiqiy o'zgarishlarga uchraganligi aniq. Ana shu o'zgarish va taraqqiyot yo'llarini va uning ahvoli qanday bo'lganligini, u vaqtdan boshlab tilda qanday o'zgarishlar bo'lib o'tganligini, ularning aynan nimalardan iborat bo'lganligini "Devonu lug'ot-it turk" kabi asarlarni tadqiq qilish natijasida aniqlash mumkin.

S.Mutalibovning ta'kidlashicha, "Devonu lug'ot-it turk" asarida iqtibos o'rnida keltirilgan maqola va adabiy parchalar qadimgi adabiy janrlarning namunasi sifatida folklor va adabiyot tarixi uchun muhim qimmatga egadir. [2] Undagi adabiy parchalar bir butun asar holida berilmagan bo'lsa ham, Mahmud Qoshg'ariyning ushbu parchalarga bergan izohlari, ularning yaxlit bir qasida, qo'shiq, dostonlarning bir bo'lagi ekanligidan dalolat beradi. Ularni bahor sevinchlari, jang sadolari, botirlarning qo'shiqlari, sevgi tuyg'ulari, ta'limiy parchalar, tabiat tasviri va boshqa mavzular ostida ayrim asarlarga birlashtirish mumkin. Devondagi adabiy parchalar va ular haqidagi Mahmud Qoshg'ariyning fikrlari, mazkur muallifning adabiy asarlar bilan ham qiziqishi, ularni diqqat bilan o'rganganligini ko'rsatadi. Mahmud Qoshg'ariy Devonda yo'l-yo'lakay bo'lsa ham, ba'zan vazn haqida, ba'zan asar haqida, ba'zan adabiy janrlar haqida, ba'zan istiora, tashbeh va boshqa tasviriy vositalar haqida, hatto she'riy xususiyatlar haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berib o'tadi. Bu o'sha davrlarda ham adabiyot haqidagi fanning mavjudligini bildiradi. Bundan tashqari, bular o'sha paytda ham poetik maktablarning borligidan dalolat beradi. Poetik talablarga to'la javob bera oladigan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari bunga yorqin misol bo'lishi mumkin. [3] Shu kabi faktlarga ko'ra, o'sha davrlarda yana bir qator boshqa asarlar ham yozilganligini taxmin qilish mumkin. Buni Devondagi ayrim parchalar

isbotlaydi. Devondagi ayrim parchalar u davrda butun hayotini ilmiy, ijodiy ishlarga bag'ishlagan, katta asarlar yaratgan yozuvchilar bo'lganligidan darak beradi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA.**

Bu faktlar, ya'ni u davr qabilalar tilida bor xususiyatlarning bizning tilimizga etib kelishi hozirgi tilimizning ko'p lahjalik mohiyatini ochib berish, o'zbek xalqi dialektlari xususiyatlarini aniqlash bilan birgalikda, qadimgi davrda yaratilgan asarlarni hozirgi tillarga moslashtirish, tabdil va tarjima qilish muammolarini yoritishda muhim rol o'ynaydi.

1) Asardagi sevgi-muhabbatga oid to'rtliklarda misralar **aaab** shaklida qofiyalanadi:

*Sevgi dardi qo'ymaydi,*

*Sog'inch yana qiynaydi.*

*Ko'glim unga to'ymaydi,*

*Yuzim mening sarg'ayur [1]*

To'rtlikning dastlabki ikki misrasida oshiqning sevgi iztiroblaridan, hijron azobidan qiynalishi, dard chekishi tasvirlanadi. Keyingi ikki bandda ana shu iztiroblar yana davom etadi va o'zining keyingi bosqichiga chiqariladi. Oshiq yor vasli hijronida qanchalik iztirob torgani bilan ko'ngli to'lmasligi, natijada yuzi sarg'ayishi aks ettiriladi.

Mahmud Qoshg'ariy ana shu mavzudagi yana bir boshqa to'rtligida oshiq iztiroblarining o'ziga xos boshqa ko'rinishlarini uchratamiz:

*Ketdi ko'zimning nuri,*

*U bilan tanam ruhi.*

*Qayda ekan (sevganim)*

*Kechalari yo'q uyqu [1]*

Bu to'rtlikda to'rtlik **aaba** tarzida qofiyalanadi.

2) Otalar nomidan farzandlarga qarata aytilgan o'gitlardan iborat bo'lgan to'rtliklar.

*O'rgan uning bilimin,*

*Borgil o'shal sari.*

*Qutlug' ishga bo'ysungin,*

*Kibrni quv nari.*

Qofiya **abab** tarzida ifodalangan. Kompozitsion jihatdan dastlabki misralarda ota o'z o'g'liga murojaat qilar ekan, uni bilim o'rganishga chaqiradi. Keyingi misralarda bilim o'rganish bilan birga ezgu ishlar qilish kerakligini o'qtiradi. Bu haqda yana quyidagi o'gitni misol keltirish mumkin:

*Eshitib ota-onangni,*

*So'zlarini qadrla,*

*Molu mulking ko'paysa,*

*Mag'rurlanib quturma. [1]*

Bundagi o'git kompozitsion jihatdan avvalgi to'rtlikdan bir oz farq qiladi. Muallif bunda dastlabki misralarda ijobiy ma'nodagi o'gitlar bilan ezgulik qilishga da'vat etsa, keyingilarida farzandga nisbatan murojaat qilib, yomon illatlarning oqibati salbiy oqibatlarga olib kelishini aytadi. Bu bilan o'ziga xos bo'lgan rang-baranglik yaratiladi. Biri-ikkinchisini to'ldirib boradi.

Kibr-havoga berilmaslik o'giti Mahmud Qoshg'ariy ijodining markaziy masalalaridan hisoblanadi. Shoir va olim o'zining butun ijodj faoliyatini oddiy xalq o'rtasida, mehnatkashlar orasida o'tkazganligi, mamlakatning eng chekka o'lkalaridagi mayda turkiy qavmlarni ham o'rganib, ularning ichki muammolarini chuqur bilganligi bois ham mazkur muammoga u jiddiy e'tibor bilan qaraydi. Ayni paytda ana shunday sharoitlarda ijod qilgan olim o'ziga xos soddalik, kamtarinlik xislatlariga egaligi u yaratgan asar, she'rlar hamda tadqiqot uchun olgan manbalarga munosabatlaridan ham bilsa bo'ladi.

Ota-o'g'il munosabatlariga bag'ishlangan yana bir to'rtlikda shunday deyiladi:

*Olgil, o'g'il, mendan o'git, fazilat ol.*

*Bunda ulug' olim bo'lib, ilmingni yoy.*

*Ulug'liging oshsa agar, xushxulq bo'lgil,*

*Bek yonida xalqlar uchun xo'b ish qilg'il. [1]*

Mahmud Qoshg'ariy bu o'rinda ham otaning o'g'liga bergan o'gitida avvalo bilim olish, olim bo'lish va ezgulik qilishni, xushxulq bo'lib el va mamlakat koriga yarashni talab qiladi.

3) Mehmon kutish odobi to'g'risidagi hikmatlar.

*Kelsa agar xonang uzra aziz mehmon,*

*Bor narsangni oldiga qo'y, bo'l mehribon. [1]*

Bunda muallif turk xonadoniga mehmon kelsa, mezbon hech narsasini ayamasligi kerakligini o'qtiradi. Aksincha bo'ladigan bo'lsa, uni qattiq tanqid ostiga olib, shunday deydi:

*Baxil mehmon mezbonini o'g'ri ko'rar,*

*Berganini minnat qilib yuzga urar. [1]*

4) Tabiat tasviriga oid to'rtliklar tasviri.

Mahmud Qoshg'ariy she'rlarida sharqona hikmat tabiat tasviri vositasida ifodalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

*Turli chechak ochildi,*

*Guldor gilam yozildi.*

*Olam jannatdek bo'ldi,*

*Sira qaytmas sovuqlar. [1]*

To'rtlikdagi kompozitsion butunlik san'atkorona ifodalangan. Bahor kelgach chechaklar ochilishini -*guldor gilamga* o'xshatiladi. Olam xuddi jannatga mengzaladi. Bahor kelishi bilan iliq haqo qishning sovuqlariga qarama-qarshi qo'yiladi va o'ziga xos tazod san'ati yaratiladi.

Shoir bahorni shunchalik yaxshi ko'radiki, uning qaytib ketishini xohlamaydi. Aksincha abadiy bo'lishini istaydi. Shu bois ham uni *jannatga* o'xshatadi. Qishning kelishi bilan qutlug' yoz ketishiga bag'ishlangan mana bu she'rga e'tibor qilaylik:

*Sovuq kelib turadi,*

*Qutlug' yozni suradi.*

*Qor dunyoni o'radi,*

*Tan uvushib zirillar. [1]*

5) Yovga qarshi ayovsiz kurashish haqidagi to'rtliklar.

*Qarshi turib unga raso,*

*Mayda o'qni yog'dirdim.*

*Qancha endi yalborsang ham,*

*Foyda yo'q deb uqtirdim. [1]*

Mahmud Qoshg'ariy yovga shavqat qilmaslik, kechirilgan yov hech qachon vafot qilmasligini aytib, shunday deydi:

*Oldin nega yalbormading,*

*Gunohingni kim kechar.*

*Qurollanib otlanding,*

*Qoningni endi er ichar. [1]*

To'rtlik **abab** tarzida qofiyalangan. Ta'kidlash lozimki, barmoq vaznidagi bunday qofiyalanish Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida aruzning manaviysi shaklida ifodalangan. [3] Barmoqdagi bu kabi go'zal qofiyalarni Mahmud Qoshg'ariy ijodida go'zal tarzda berilganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur to'rtlikda vatan himoyachisi yovga nisbatan o'z nafratini:

– Yovga qarshi nafratning sabablarini aytish;

– Engilgan yovni kechirib bo'lmaslik va uning qismati nimalarga olib kelishi mumkinligi ko'rsatilgan qismlarga ajratish mumkin.

Mahmud Qoshg'ariyning dushmanga qarshi nafrat bilan yo'g'rilgan she'rlarida arslon kabi olishish lozimligi uqtiriladi:

*Dushman yo'lin o'raylik,*

*Otdan tushib uraylik.*

*Arslon kabi turaylik,*

*Yovning kuchi bo'shashgan. [1]*

Mahmud Qoshg'ariy she'rlarida qish bilan yoz bir-biriga qarama-qarshi qo'yilar ekan, yozni –vatan himoyachisiga, qishni -yovga nisbat beriladi:

*Yoz bilan qish ko'rishdi,*

*Hunar yoyin qurishdi.*

*Saf tortishib turishdi,*

*O'q otgani choqlanur.* [1]

Shoir tabiat tasviri vositasida jang maydonini tasvirlar ekan, o'ziga xos tashbehlar yaratadi.

Ana shu mavzuga oid yana bir to'rtlikda shunday deyiladi:

*Qoru yomg'ir menda inar,*

*Oziq-ovqat shundan unar.*

*Yovuz dushman menda tinar,*

*Sen kelibon qo'zg'alur.* [1]

### **XULOSA.**

“Devonu lug'ot-it turk”ning o'zbek tiliga munosabati masalasi ham qadimgi obidalarni hozirgi tillarga tarjima qilish muammosi bilan ham chambarchas bog'liq. O'zbek tili o'zbek xalqi kabi o'z boshidan turli davrlarni boshidan kechirgan. Shunday paytlar ham bo'lganki, o'zbek tilini unutilar darajaga etkazib qo'yilgan. XIV asrlarga kelib o'zbek tili ayanchli holatga tushib qolgan. XV asrning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning sa'y-harakati bilan bu holat ancha yaxshilangan. Kuzatishlarning ko'rsatishiga qaraganda “Devon” tili, undan keyingi Alisher Navoiy davri adabiy tili leksikasi hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Maxmud Kashgariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lugot-it turk)//Perevod Mutallibova. - Tashkent, 1960-1963-yillar. T. I-III. 81-455-betlar.
2. G'.Abduraxmonov, S.Mutallibov Mahmud Qoshg'ariy. Indeks-lug'at “Turkiy so'zlar devoni” (Devonu lug'ot-it turk), Toshkent, O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti. 1965-yil. 158-bet
3. Qosimjon Sidiqov, ““Qutadg'u bilig” to'rtliklarining inglizcha badiiy tarjima hususiyatlari” monografiya, Toshkent, 2014-yil. 35-bet
4. Fitrat A. Obraztso' drevney tyurkskoy literaturo'. Tashkent. 1927.

5. Malov S.E. *Obraztso' drevnetyurkskiy pis mennosti s predisloviem i slovarem*. Tashkent.1926.
6. Xalidov A. B."Divan Lugat at-Turk" v Spavnitel nom osvehenii s yego arabskim prototipom // *Sovetskaya tyurkologiya*. 1984.T. 4. S. 85-90.
7. G'.Abduraxmonov, S.Mutallibov Mahmud Koshg'ariy. Indeks-lug'at "Turkiy so'zlar devoni" (Devonu lug'otit turk), Toshkent, O'zbekiston fanlar akedemiyasi nashriyoti. 1965 y.
8. A.K.Kurishjonov. *Issledovanie po leksike "Tyurko-arabskogo slovarya"*, Alma-Ata, "Nauka" 1970g
9. I.A.Islomov. *Turkiy tilda qavm-qarindoshlik terminlari*. T. Fan. 1966.
10. E.A.Umarov. "Novo'e danno'e ob orxonskix nadpisyax". Toshkent. Fan. 2006
11. U.Valiev. "Devonu lug'ot it-turk"da –chi affiksini ot yasashiga doir. O'zbek tili va adabiyoti, № 3 Toshkent, 1964